

O'QITUVCHI NUTQINING RIVOJLANISH MEXANIZMLARI

Hakimov Begmatjon Samijon o'g'li,

Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti

Toshkent, O'zbekiston

Annotatsiya. Mazkur maqolaning maqsadi o'qituvchining sinfxonadagi nutqini rivojlantirishga qaratilgan samarali mexanizmlarni tahlil qilish va pedagogik nutqni takomillashtirish yo'llarini aniqlashdan iborat. Zamonaviy ta'lim jarayonida o'qituvchining sinfxonadagi nutqi muhim ahamiyat kasb etadi. Pedagogik jarayonda o'qituvchining nutqiy mahorati o'quvchilarning bilim olish darajasiga, ularning darsdagi faolligiga va mustaqil fikrlash qobiliyatiga ta'sir qiladi. O'qituvchining kommunikativ kompetensiyasi kuchli bo'lsa, u dars jarayonida o'quvchilar bilan samarali muloqot o'rnatadi va o'quvchilarning qiziqishini oshiradi.

Kalit so'zlar: nutq madaniyati, til boyligi, pedagogik mahorat, nutqiy kompetensiya, pedagogik texnika, muloqot madaniyati, metodik tayyorgarlik, o'qituvchi, kommunikatsiyaa.

O'qituvchining sinfxonadagi nutqi pedagogik jarayonning muhim tarkibiy qismi bo'lib, uning sifati va samaradorligi bir qator omillarga bog'liqdir. O'qituvchining nutq madaniyati, til boyligi va nutq uslubi o'quvchilarga ta'sir ko'rsatish qudratiga ega bo'lishi kerak.

1. O'qituvchining nutq madaniyati va lug'aviy boyligi: O'qituvchi o'z fikrini to'g'ri va ravon ifodalashi uchun, avvalo, nutq madaniyatiga ega bo'lishi lozim. Nutq madaniyati — bu so'z tanlash, fikrni mantiqiy va izchil ifodalash, grammatik to'g'ri gapirish kabi jihatlarni o'z ichiga oladi [1].

2. Pedagogik mahorat va kommunikativ kompetensiya: O'qituvchi nutqining rivojlanishida uning pedagogik mahorati va kommunikativ qobiliyati muhim o'rin tutadi. O'qituvchi o'z nutqi orqali o'quvchilar bilan samarali muloqot o'rnatadi olishi, ularning qiziqish va ehtiyojlarini inobatga olishi kerak.

3. Psixologik omillar: Sinfxonadagi psixologik muhit ham o'qituvchi nutqiga ta'sir etadi. Agar sinfdan ishonch va iliq muloqot muhiti yaratilsa, o'qituvchi o'z fikrlarini erkin va ishonch bilan bayon etadi. Aksincha, zo'riqish va stress holatida nutq erkinligi cheklanadi.

4. Metodik tayyorgarlik va darsga puxta tayyorlanish: O'qituvchi darsga puxta tayyorlanib kelsa, u o'z fikrlarini aniq va tizimli bayon etadi. Metodik tayyorgarlik yetarli bo'lmasa, nutq ravonligi va mazmunan boyligi ham sust bo'ladi.

5. Tilga oid omillar: O'qituvchi foydalanadigan tilning boyligi va ifodaviyligi ham muhimdir. O'qituvchi faniga mos ilmiy terminlarni to'g'ri tanlab, ularni o'quvchilar darajasiga moslashtirib tushuntirishi lozim.

6. Texnologik omillar: Zamonaviy ta'lim texnologiyalari, interaktiv vositalar va elektron resurslardan foydalanish o'qituvchining nutqini yanada boyitadi va uni ta'sirchan qiladi. Vizual va audio materiallar bilan boyitilgan nutq o'quvchilar tomonidan tez va samarali qabul qilinadi [2].

7. Tashkiliy omillar: O'qituvchining sinfxonadagi nutq faoliyatini shakllantirish va rivojlantirishda tashkiliy omillar muhim o'rin tutadi. Ular pedagogik jarayonning samaradorligiga, ta'lim-tarbiya sifatiga hamda o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi kommunikativ munosabatlarning to'g'ri yo'lga qo'yilishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Avvalo, sinfdagi muhit – ya'ni shovqin darajasi, mebel va texnik jihozlarning joylashuvi, xonaning yoritilishi va havosi kabi omillar o'qituvchining nutqiy faolligiga sezilarli darajada ta'sir qiladi. Zamonaviy, qulay va texnik vositalar bilan jihozlangan o'quv xonalarida o'qituvchining o'z fikrini aniq, ravon va lo'nda ifodalash imkoniyatlari kengayadi.

Nutq madaniyati va til boyligi — bu o'qituvchining nutqini rivojlantirishda ta'sir etuvchi eng asosiy omillardan biri hisoblanadi [3]. Sababi, o'qituvchining pedagogik jarayondagi asosiy vositasi — bu uning nutqi. Agar o'qituvchi nutq madaniyatiga ega bo'lsa va uning so'z boyligi yetarli darajada bo'lsa, u:

O'z fikrlarini aniq, tushunarli va mantiqiy ifodalay oladi;

Ilmiy atamalar va murakkab tushunchalarni oddiy va hayotiy misollar bilan tushuntirib bera oladi;

O'quvchilar bilan ishonchli va ta'sirchan muloqot qura oladi;

Dars jarayonini qiziqarli va interaktiv tarzda olib bora oladi.

Aksincha, agar o'qituvchining nutq madaniyati past bo'lsa yoki til boyligi cheklangan bo'lsa, u fikrini ravon ifodalashda, o'quvchilarni qiziqtirishda yoki murakkab mavzularni tushuntirishda qiyinchilikka duch keladi. Bu esa dars samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. O'qituvchi nutq madaniyati va uning til boyligi ta'lim jarayonining samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Chunki sinfxonadagi pedagogik muloqot asosan o'qituvchining nutqi orqali amalga oshiriladi. Shuning uchun o'qituvchi o'z fikrlarini aniq, ravon, ifodali va mazmunli tarzda bayon eta olishi lozim.

Nutq madaniyatining asosiy ko'rsatkichlari: Nutq madaniyati bu — o'z fikrini og'zaki va yozma shaklda me'yorlarga mos, o'ziga xos uslubda, ta'sirchan va tushunarli bayon etish qobiliyatidir [4]. U quyidagi omillar orqali belgilanadi.

Aniqlik — o'quvchiga berilayotgan ma'lumotning mazmun jihatdan to'liq va tushunarli bo'lishi;

Ravonlik — ortiqcha pauza, grammatika xatolarisiz uzluksiz fikr bildirish;

Ta'sirchanlik — fikr bildirish jarayonida so'z ohangi, tana tili va emotsiyalardan to'g'ri foydalanish;

Mantiqiylik — nutqning o'zaro bog'langan, izchil va dalillangan bo'lishi.

Nutq madaniyati faqat to'g'ri gapirish bilangina cheklanmaydi. U fikrni aniq va ta'sirchan ifodalash, o'quvchi bilan muloqotda mos so'zlarni tanlash, nutqda ijtimoiy-madaniy normalarga rioya qilishni ham o'z ichiga oladi.

O'qituvchining nutqiy faoliyatiga ta'sir etuvchi omillar orasida psixologik muhit alohida o'rin tutadi. Sinfxonadagi umumiy ruhiy muhit, o'quvchilar va o'qituvchi o'rtasidagi psixologik iqlim, o'qituvchining ruhiy holati va emotsional barqarorligi uning nutq sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Psixologik muhitning mohiyati: Psixologik muhit deganda sinfdagi o'zaro munosabatlar, o'quvchilar va o'qituvchi o'rtasidagi ishonch va hurmat muhiti, muloqot jarayonidagi ochiqlik va samimiyat darajasi tushuniladi. Bu muhit faqat o'quvchilarning emas, balki o'qituvchining ham o'zini erkin his qilishiga imkon yaratadi.

Psixologik muhitning nutqqa ta'siri:

1. Erkin muloqot imkoniyati [5]: Sinfxonadagi iliq va ishonchli psixologik muhit o'qituvchining fikrini erkin, tushunarli va samimiy ifodalashiga sharoit yaratadi. Bunday muhitda o'qituvchi ortiqcha zo'riqmay, o'z nutqini tabiiy va ta'sirchan tarzda yetkazadi.

2. Nutqiy stressning oldini olish: Salbiy psixologik muhit, ya'ni o'quvchilarning qiziqmasligi, o'qituvchini e'tiborsiz tinglashi/salbiy munosabati esa nutqiy stressni keltirib chiqaradi. Stress holatida o'qituvchi fikrini mantiqiy bog'lay olmaydi, so'z tanlashda qiynaladi, bu nutq sifatiga salbiy ta'sir qiladi.

3. Ijobiy emotsional fon va nutq faolligi: O'qituvchi o'zini sinfdan qulay va xotirjam his qilsa, uning nutqi ravon, ifodali va ta'sirchan bo'ladi. Bunday sharoitda o'qituvchi jonli misollar, hayotiy hikoyalar keltirishga moyil bo'ladi, bu esa o'quvchilar e'tiborini tortadi va dars sifatini oshiradi.

4. O'zaro ishonch va muloqot sifati: O'quvchilar o'qituvchiga nisbatan ishonch bilan qarasa, ular o'qituvchi nutqini diqqat bilan tinglaydi, faol muloqotda qatnashadi. Bu esa o'qituvchining nutqiy faolligini oshirib, uni yanada ta'sirchan va mazmunli qiladi.

Pedagogik mahorat — o'qituvchi nutqini rivojlantirishga ta'sir etuvchi omil sifatida [6]: Pedagogik mahorat o'qituvchining kasbiy kompetensiyasi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, uning bilim, ko'nikma va malakalarini tizimli tarzda qo'llay olish qobiliyatini ifodalaydi. Xususan, o'qituvchining nutqi pedagogik mahoratining eng muhim ko'rinishlaridan biri bo'lib, bu nutqning ta'sirchanligi va samaradorligi bevosita pedagogik mahorat darajasiga bog'liqdir.

Pedagogik mahoratning asosiy tarkibiy qismlari:

1. Kasbiy bilimlar va metodik savodxonlik: O'qituvchi o'qitayotgan fan bo'yicha puxta bilimga ega bo'lishi va bu bilimlarni ta'lim jarayonida qanday samarali yetkazishni bilishi lozim. Bu esa pedagogik nutqning aniqligi va mantiqiyligini ta'minlaydi.

2. Nutqiy kompetensiya: Pedagogik mahoratning asosiy tarkibiy qismidan biri bu — nutqiy kompetensiyadir [7]. Bu o'qituvchining ilmiy, badiiy va og'zaki

nutq me'yorlarini bilishi, tushunarli va ta'sirchan gapira olishi, shuningdek, har bir o'quvchi bilan mos tilni tanlay olishi bilan belgilanadi.

3. Pedagogik texnika va ovoz ustida ishlash: Pedagogik mahoratga ega bo'lgan o'qituvchi o'z nutqini tovush balandligi, intonatsiya, pauza va ta'kid orqali yanada ta'sirli va ifodali qilishni biladi. Bu esa o'quvchilar e'tiborini jalb etish va fikrlarni samarali yetkazish imkonini beradi.

4. Muloqot madaniyati va psixologik yondashuv: Pedagogik mahorat shuningdek, muloqot madaniyatini o'z ichiga oladi. Har bir o'quvchi bilan individual yondashish, ularning saviyasiga mos tilda gapira bilish ham o'qituvchining nutqiy rivojlanishiga xizmat qiladi.

Pedagogik mahorat va nutq rivoji o'rtasidagi bog'liqlik: Yuqori pedagogik mahoratga ega o'qituvchi nutqini manzilli, ya'ni o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlariga moslab yo'naltiradi. U murakkab ilmiy atamalarni sodda, hayotiy misollar orqali tushuntiradi. O'quvchilarning e'tiborini ushlab turish uchun nutqida emotsionallik, obrazlilik va ijodiy yondashuvdan foydalanadi.

Metodik tayyorgarlik — o'qituvchi nutqini rivojlantirishga ta'sir etuvchi omil sifatida [8]: O'qituvchining nutqiy mahoratini shakllantirish va rivojlantirishda uning metodik tayyorgarligi alohida ahamiyat kasb etadi. Zero, mukammal bilim va boy so'z boyligiga ega bo'lish o'qituvchining samarali nutqiy faoliyatini to'liq ta'minlab bermaydi. U bu bilim va nutqiy salohiyatni qanday shaklda, qaysi metod va usullar orqali o'quvchiga yetkazishni ham aniq bilishi lozim.

Metodik tayyorgarlik deganda o'qituvchining — o'quv jarayonini rejalashtirish, zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish, didaktik va metodik vositalardan samarali foydalanish, dars jarayonida o'quvchilarning faolligini oshirish, nutq orqali ta'limiy va tarbiyaviy ta'sir o'tkazish kabi faoliyatlarga tayyorligi tushuniladi.

Metodik tayyorgarlik va nutq rivoji o'rtasidagi bog'liqlik:

1. Dars tuzilmasini puxta rejalashtirish: O'qituvchi metodik jihatdan puxta tayyorlangan bo'lsa, uning nutqi dars jarayonida aniq maqsadga qaratilgan, mantiqiy izchil va tizimli bo'ladi. Aks holda, nutqda chalkashlik, ortiqcha so'zlar va mantiqiy uzilishlar paydo bo'lishi mumkin.

2. O'quvchilarning nutqiy faolligini oshirish: Metodik jihatdan savodli o'qituvchi dars jarayonida faqat o'zining nutqi bilan cheklanmaydi. U o'quvchilarni ham faol fikrlashga, savol-javob, bahs-munozara va tahlil qilishga jalb etadi. Bu jarayonda o'qituvchi nutqi o'z-o'zidan boyib boradi, yangi iboralar, izohlar, pedagogik topilmalar bilan to'lib boradi.

3. Fan va yosh xususiyatlariga mos metodlarni tanlash: Har bir darsda o'qituvchi mavzuga, sinf darajasiga va o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos metodlarni tanlay bilishi lozim. Mos metodlar tanlanganda o'qituvchi nutqi manzilli, tushunarli va hayotiy bo'ladi. Bu esa nutqiy kompetensiyaning o'sishiga xizmat qiladi.

4. O‘z-o‘zini tahlil qilish va metodik xatolarni bartaraf etish: Metodik tayyorgarligi yuqori bo‘lgan o‘qituvchi har bir darsdan so‘ng o‘z nutqini, muloqot usulini tahlil qilib, o‘zining metodik va nutqiy kamchiliklarini doimiy ravishda to‘g‘rilab boradi. Bu esa uning nutqiy rivojlanishiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Isaqov A. Pedagogik texnologiyalar va innovatsiyalar. – T., 2021. – B. 63.
2. Karimov R. Ta’lim jarayonida lingvistik kompetensiya shakllantirish. – T.: Ma’naviyat, 2019. – B.58.
3. Karimova Z. O‘qituvchining pedagogik mahorati va nutqiy kompetensiyasi. – T.: Ilm ziyo, 2020. – B.49.
4. Norqulov B. O‘qituvchi nutq madaniyatini rivojlantirish yo‘llari. – T.: Istiqlof, 2022. – B.67.
5. Qurbonov A. Nutq madaniyati va pedagogik muloqot asoslari. – T.: O‘zbekiston, 2021. – B.56.
6. Sodiqova Z. Pedagogik nutq va uning xususiyatlari. – T., 2020. – B.48.
7. To‘lqinov M. O‘qituvchi nutq madaniyati va pedagogik muloqot asoslari. – T.: Fan, 2023. – B.28.
8. Usmonov A. Pedagogik nutqning rivojlanish tamoyillari. – Ta’lim, 2020.